



Dilnoza SARBAROVA,
Katta o‘qituvchi, PhD, O‘zbekiston Milliy universiteti
E-mail: dilnozasarbarova1@gmail.com
Vazira NORMURODOVA,
Talaba, O‘zbekiston Milliy universiteti

ToshDO‘TAU professori v.b., DSc M.Umurzoqova taqrizi asosida

PECULIARITIES IN THE EXPRESSION OF ADJECTIVES IN POETIC TEXT

Annotation

This article analyzes the specific features of adjectives in Uzbek poetic texts, their artistic-aesthetic functions, and pragmatic possibilities. The study scientifically substantiates the role of adjectives in creating imagery, intensifying emotional expressiveness, enriching poetic description, and shaping the author's individual style. During the research, semantic, stylistic, and pragmatic aspects of adjectives in modern Uzbek poetry were examined. The analysis revealed that adjectives in poetic texts function not only as linguistic units expressing the characteristics of objects but also as important means of poetic thinking and artistic expression.

Keywords: adjective, poetic text, poetic speech, pragmatics, artistic imagery, expressiveness, stylistics, semantics, individuality, linguistic analysis.

ОСОБЕННОСТИ ВЫРАЖЕНИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ПОЭТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В данной статье анализируются особенности употребления прилагательных в узбекском поэтическом тексте, их художественно-эстетические функции и прагматические возможности. Научно обосновывается роль прилагательных в создании образности, усилении эмоционально-экспрессивного значения, обогащении поэтического описания и формировании индивидуального авторского стиля. В ходе исследования были изучены семантические, стилистические и прагматические аспекты прилагательных в современной узбекской поэзии. В результате анализа установлено, что прилагательные в поэтическом тексте выступают не только как средство обозначения признака предмета, но и как важный инструмент выражения поэтического мышления.

Ключевые слова: прилагательное, поэтический текст, поэтическая речь, прагматика, художественный образ, экспрессивность, стилистика, образность, семантика, индивидуальный стиль.

SIFATLARNING SHE‘RIY MATNDA IFODALANISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek she‘riy matnlarida sifatlarning qo‘llanish xususiyatlari, ularning badiiy-estetik vazifalari hamda pragmatik imkoniyatlari tahlil qilinadi. She‘riy nutqda sifatlarning obraz yaratish, hissiy-ekspressivlikni kuchaytirish, poetik tasvirni boyitish va muallif individual uslubini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot davomida zamonaviy o‘zbek she‘riyat namunalari sifatlarning semantik, stilistik va pragmatik jihatlari o‘rganildi. Tahlillar natijasida sifatlarning she‘riy matnda nafaqat predmet belgisini ifodalovchi birlik, balki poetik tafakkurni yuzaga chiqaruvchi muhim vosita ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: sifat, she‘riy matn, poetik nutq, pragmatika, badiiy tasvir, ekspressivlik, stilistika, obrazlilik, semantika, individual uslub.

Kirish. Tilning badiiy imkoniyatlari, so‘z boyligi va ifoda vositalarining xilma-xilligi she‘riyatda o‘zining eng yuksak darajasiga yetadi. Badiiy adabiyot, xususan, she‘riy matnda so‘zlar faqat lug‘aviy ma‘nosida emas, balki estetik, hissiy va obrazli ma‘nolarda ham qo‘llanadi. Sifat so‘z turkumi esa she‘riy nutqda eng faol ishlatiladigan vositalardan biridir. Sifatlarning orqali shoirlar predmet yoki hodisalarning belgi-xususiyatlarini nafaqat tasvirlaydi, balki o‘z munosabatini, hissiyotini va badiiy-estetik bahosini ham ifoda etadi. Shu bois sifatlarning she‘riy matndagi o‘ziga xos ifodalanish xususiyatlarini o‘rganish bugungi kun o‘zbek tilshunosligida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Har bir ijodkor metaforik sifatlarni o‘z estetik ta‘bi, poetik maktabi va dunyoqarashiga mos holda qo‘llaydi. S.Maxsumova pragmatik ma‘noning metaforalar orqali hosil qilinishi haqida fikr yuritib, so‘zlarning ko‘chma ma‘noda qo‘llanilganida bir qancha ma‘no ifodalashi, ana shu ko‘chma ma‘nolarning birini qo‘llash orqali baho munosabati ifodalanishini E.Vohidov she‘riyat misolida yoritib bergan .

Shu bilan bir qatorda, sifatlarning ramziy (simvolik) ma‘nolari ham ifodalaydi. Sifatlarning ramziy ma‘nolari milliy-madaniy dunyoqarash bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek she‘riyat qatlamlarida ranglar, holat bildiruvchi sifatlarning va baholovchi sifatlarning ko‘p holatlarda simvolik mazmun beradi. Eng ko‘p uchraydigan rang simvollarini sifatlarda quyidagi rang bildiruvchi sifatlarni keltirish mumkin:

Oq - poklik, ezigulik, yorug‘lik, musaffollik

Qora - qayg‘u, zulmat, iztirob, g‘am

Qizil - muhabbat, ehtiros, xavf

Ko‘k - umid, orzu, samoviylik, kenglik

Yashil - hayot, yangilanish, tabiat

Masalan: “Oq tunlarim senga atalg‘ay” misolidagi “oq”

sifati tozalikka ishora qiladi. Cho‘lponning “qora osmon ostidagi xalq” misolida esa “qora” - siyosiy zulm timsoli. shoir She‘riy matnlarda qo‘llanilgan sifatlarning, ayniqsa, rang bildiruvchi sifatlarning boshqa leksik vositalarga nisbatan keng qo‘llaniladi va shu asnoda she‘riy matnlarda ranglar orqali baho

munosabatining ifodalanishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi[10].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sifatlar til tizimida predmetning rangini, shaklini, hajmini, ichki va tashqi belgisini bildiruvchi so'z turkumi hisoblanadi. Ammo she'riy matnda ular ko'pincha grammatik ma'nosidan kengroq, ramziy yoki metaforik ma'nolarda qo'llanadi. Shoir sifatlarini nafaqat tasviriy vosita sifatida, balki badiiy-estetik ta'sir kuchini oshiruvchi vosita sifatida ham ishlatadi. Jahon tilshunosligida sifatlar masalasi qadimdan tadqiqotchilar e'tiborini jalb etib kelgan. Struktur tilshunoslik vakillari sifatlarini asosan grammatik kategoriya sifatida o'rganishgan bo'lsa, keyingi davr tadqiqotlarida ularning semantik va pragmatik xususiyatlariga alohida urg'u berildi.

Rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, A.A.Potebnya, Y.M.Lotman kabi olimlar poetik nutqning lingvistik xususiyatlarini o'rganishda sifatlarining badiiy-estetik imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Vinogradovning fikricha, poetik matnda sifatlar nafaqat predmetning belgisini bildiradi, balki muallifning emotsional munosabatini ham ifodalaydi.

Sifatning asosiy vazifasi shaxs, predmet va hodisalarning belgi-xususiyatini ifodalashdan iborat bo'lsa-da, adabiy nutqda, ayniqsa she'riy matnda, ularning semantik yuklamasi bundan ancha kengdir. Sifatlar tilning nominativ imkoniyatlarini boyitish bilan birga, estetik mazmun yaratadigan, matnga emotsional rang beradigan, o'quvchi idrokiga ta'sir qiladigan vosita sifatida ham o'rganiladi. Hozirgi kunga qadar o'zbek tilshunosligida sifatlarining morfologik xususiyatlari, sintaktik imkoniyatlari, semantikasi, sinonimiyasi kabi masalalar atroflicha o'rganilgan[1,2,3]. Shuningdek o'zbek tilida sifatlarining ma'no turlari va ularning o'zbek tili izohli lug'atida berilishi borasida qilingan ishlar ham sifatga oid olib borilayotgan tadqiqotlar orasida muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, B.Yo'ldoshev, M.Hakimov kabi olimlar sifatlarining grammatik va uslubiy jihatlarini tadqiq qilganlar. Ayniqsa, N.Mahmudovning matn lingvistikasi bo'yicha ishlar poetik matnning pragmatik xususiyatlarini ochishda muhim manba hisoblanadi.

Pragmalingvistika doirasidagi tadqiqotlarda til birliklarining kommunikativ vazifasi asosiy o'ringa chiqdi. Bu esa sifatlarining she'riy matndagi yashirin ma'no, subyektiv baho va emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqarishdagi rolini o'rganishga keng imkoniyat yaratdi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy poetik matnlarda sifatlarining metaforik, ramziy va konnotativ ma'noda qo'llanishi kuchaygani kuzatiladi. Masalan, "muz yurak", "oltin tong", "sokin nigoh" kabi birikmalarda sifatlar faqat belgi ifodalab qolmay, muayyan poetik obrazni ham yuzaga keltiradi. Shuningdek, jahon poetikasida epitet tushunchasi sifatlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Epitetlar she'riy matnda tasviriylikni kuchaytiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. O'zbek she'riyatida ham epitetlarning asosiy qismi sifatlar orqali ifodalaydi.

Mumtoz va zamonaviy o'zbek she'riyatida sifatlar juda ko'p qo'llanilgan va ular turli lisoniy maqsadlarga xizmat qilgan. Shoirlar sifatlardan foydalanib, nafaqat tashqi dunyoni tasvirlaganlar, balki o'zlarining ichki kechinmalarini, falsafiy qarashlarini, ijtimoiy pozitsiyalarini ham ifodalaganlar. Chunki ular badiiy uslubning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiy matnlarda obraz yaratishda sifatlarining roli katta. Ular orqali shoir:

- tasvirning aniqligini ta'minlaydi;
- she'rga emotsional kuch bag'ishlaydi;
- o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi;

e) o'quvchida ma'lum ta'sir uyg'otadi;

f) g'oyaviy mazmunni yetkazadi.

Masalan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, G'afur G'ulom, Zulfiya kabi shoirlar ijodida sifatlar faqatgina predmet belgilarini emas, balki shoirlarning ichki kechinmasini, hissiyatini ham ifodalagan. Bunda sifatlar ko'pincha metaforik, pragmatik, ramziy, sinonimik, ba'zan esa antonimik ma'noda qo'llanadi.

Misol tariqasida Erkin Vohidovning "Yo'q emish orzuda ayb..." she'ridagi bir misrani olsak:

Jodu ko'zlar bandi yolg'iz -

Sen emas, tutqun yurak,

Avval oxir ko'xna meros

Ishq degan tuyg'uda ayb.

She'rdagi "jodu ko'zlar", "tutqun yurak", "ko'xna meros" kabi birikmlar kuchli emotsional va obrazli ma'no beradi. Sifatlar bu yerda grammatik vazifasidan tashqari, poetik obraz yaratish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Va bundan tashqari ular pragmatik munosabatni ham yuzaga keltirmoqda. "Jodu ko'zlar", "tutqun yurak", "ko'xna meros" kabi sifatlar pragmatik pressupozitsiya hosil qilayotganini ham ko'rishimiz mumkin.

She'riy matnda sifatlarining qo'llanishida epitet, metafora, tashbeh kabi badiiy san'atlar muhim o'rin tutadi. Epitetlar – she'rning estetik jozibasini kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri bo'lib, ular sifatning eng faol ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, G'afur G'ulomning "Sog'inish" she'ridagi quyidagi misrani olsak:

Tong otar chog'ida juda sog'inib,

Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.

Loyqa hayolotlar chashmaday tindi.

Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

Misradagi "loyqa", "pok-pokiza" kabi epitet sifatlar she'rni yanada ta'sirchan, obrazli qilib, unga hissiy kuch berish bilan bir qatorda muallifning kayfiyatini ham ko'rsatib pragmatik ma'no kasb etmoqda. "Pokiza" sifatining takror, "pok-pokiza" tarzida qo'llanishi ta'sirchanlikni yanada oshirgan ya'ni she'r ta'sirchanligini oshirish maqsadida sifatlarini takror qo'llash usuli ko'plab shoirlar ijodida ham uchraydi.

Publitsistik uslubda sifatlar baholash vazifasini bajarsa, ilmiy uslubda esa aniqlik va tavsiflash funksiyasiga ega. Pragmatik nuqtayi nazardan esa sifatlar so'zlovchining munosabatini ifodalash vositasi ham hisoblanadi. Pragmatik nuqtai nazardan sifatlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Ta'sirchanlik funksiyasi – sifatlar orqali yozuvchi yoki shoir o'quvchida ma'lum his-tuyg'u uyg'otadi. Masalan, "qora kun", "achchiq-achchiq kunlar" iboralarida "qora" va "achchiq-achchiq" sifatleri rangni yoki ta'mini emas, balki og'ir, azobli kunlarni anglatib, o'quvchida hamdardlik hissiini uyg'otadi.

Baholash funksiyasi – sifatlar orqali matndagi predmet yoki hodisaga munosabat bildiriladi. "Yaxshi", "go'zal", "pokiza" kabi sifatlar ijobiy baholashni, "yomon", "zolim", "berahm" kabi sifatlar esa salbiy baholashni ifodalaydi.

Estetik funksiya – sifatlar she'riy yoki nasriy matnning go'zalligini, jimjimadorligini ta'minlaydi. Mumtoz she'riyatda ishlatiladigan "qaddi sarv" (qadd-qomati sarv daraxti kabi), "ro'yi moh" (yuzy oy kabi), "qoshlari kamonvash" (qoshlari kamonday) kabi sifatlar va taqqoslashlar she'rga estetik qiymat bag'ishlaydi.

Ramziy-falsafiy funksiya – ba'zi sifatlar mumtoz adabiyotda ramziy ma'nolar kasb etgan. Masalan, "qora" rangi nafaqat rangni, balki g'am, qayg'u, azobni; "oq" esa poklik, halollik, xayrixohlikni anglatadi.

Milliy-madaniy funksiya – sifatlar o'zbek xalqining dunyoqarashi, milliy-madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. "Mehribon", "saxiy", "kamtarin" kabi sifatlar o'zbek xalqi uchun muhim hisoblangan xislatlarni ifodalaydi.

O'zbek she'riyatining ko'plab namunalarda sifatlar nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki g'oyaviy mazmunni ochish kaliti bo'lib xizmat qiladi. Masalan, G'afur G'ulomning yana bir "Sen yetim emassan" she'rida "oppoq tong", "musaffo havo", "porloq kelajak" kabi sifatli birikmalar orqali xalqning hayotga, kelajakka ishonchi, ruhiy tiklanishini aks ettiribgina qolmay, o'ziga xos obraz yaratib, tasavvurni estetik ta'sirini ham kuchaytirgan.

Sifatlarning she'riy matndagi o'ziga xosligi, shuningdek, ularning joylashuvi va so'z tartibida ham namoyon bo'ladi. Oddiy so'z tartibida kelgan sifatlar aniq belgi ifodalasa, poetik tartibda ularning joyi o'zgarishi orqali ma'no va urg'u o'zgaradi. Masalan, "nozik qalb sohibi" birikmasi bilan "qalbi nozik" ifodasi o'rtasida hissiy farq mavjud. Bu jihat poetik sintaksisning o'ziga xos ifoda imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sifatlarning she'riy matnda qo'llanishi faqat grammatik birlik sifatida emas, balki badiiy obraz yaratish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir sifatlar orqali nafaqat predmet va hodisalarni tasvirlaydi, balki o'z hissiyatini, munosabatini, falsafiy qarashlarini ham

ifodalaydi. Sifatlarning poetik nutqdagi o'ziga xosliklari – ularning ramziy ma'nolarda ishlatilishi, emotsional yuklanishi, sinonimik qatlamining kengligi, pragmatik ma'nolar kasb etishi va badiiy san'atlar bilan uyg'unligida ko'rinadi. Demak, she'riyatda sifatlar poetik fikrning estetik asosini tashkil etuvchi muhim vositalardandir.

Shuningdek, tadqiqot natijasida sifatlarning she'riy matnda qo'llanishi o'ziga xos lingvopoetik hodisa ekanligi aniqlandi. She'riy nutqda sifatlar oddiy grammatik birlik sifatida emas, balki badiiy-estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Sifatlar poetik obraz yaratadi, ekspressivlikni kuchaytiradi, muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydi, matnning pragmatik mazmunini boyitadi, ritm va ohangdorlikni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, metaforik va konnotativ sifatlar poetik tafakkurning muhim ko'rinishi ekanligi kuzatildi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida sifatlarning individual-uslubiy imkoniyatlari yanada kengayib borayotgani aniqlandi. Kelgusida sifatlarning poetik diskursdagi kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent. 2007.
3. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. - Toshkent: Fan, 1974.
4. Hamdamova I. O'zbek tilida sifatning ma'no turlari va ularning o'zbek tili izohli lug'atida berilishi. Filol.fan.nomz.diss ... avtoref. – Toshkent, 1964.
5. Nurmonov A. va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Morfologiya). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
6. Jo'rayev M. She'riy nutqning lingvopoetik tahlili. – Toshkent: Universitet, 2004.
7. G'afur G'ulom. She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
8. Vohidov E. She'rlar to'plami. – Toshkent: Yozuvchi, 1990.
9. Sarbarova D. Lingvopragmatika va uning shakllanishiga doir nazariy qarashlar tahlili. O'zMU xabarlari, 2023, [1/8], [ISSN 2181-7324]
10. Sarbarova D. Sifatlarning badiiy matndagi funksional-stilistik o'rni. Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 11-12. ISSN: 2181-1741 (Print) ISSN: 2181-1725.